



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ARAB XURMOSINI EKISH JARAYONI

Mardonova Maftuna Naimovna

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

2-bosqich bakalavriyat talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7810470>

ARTICLE INFO

Received: 29th March 2023

Accepted: 07th April 2023

Online: 08th April 2023

KEY WORDS

“Bahr”, “Deglet Nur”, “Nur
Sanosi”, “Medjool”, “Holway”,
“Xadvvari”.

ABSTRACT

Ushbu maqolani o'qiganingizdan keyin, arab xurmosi, uning shifobaxshligi va bu mevani yetishtirish to'g'risida bilimga ega bo'lasiz. O'ylaymanki, siz ham o'z yashash joyingizda arab xurmosini yetishtirib, undan samarali foydalanishingiz mumkin.

Xurmo eng qadimgi mevali ekinlardan biri bo'lib inson ma'daniyati va sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Uning yetishtirilishi taxminan 6000-8000-yil oldin hozirgi Iroq atrofida joylashgan Mesopatamiyada boshlangan. Uning mashxurligi Islom dinining kengayishi bilan o'sib borgan. Arabiston, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda qurg'oqchil hududlarida eng muhim mevali ekinlari biri bo'lib kelgan. O'tgan III asr davomida xurmo daraxti Avstraliya, Hindiston, Pokiston, Meksika, Janubiy Afrika, Janubiy Amerika va Amerika Qo'shma Shtatlarida „arab xurmosi“ni ekish va yetishtirish amalga oshirilib kelinmoqda. Arab xurmosini yetishtirish ko'plab mamlakatlarda mahalliy aholi uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Arab xurmosidan shakar, sirka, yog' va shu kabi mahsulotlar tayyorlanadi. Mevaning o'zidan tashqari, xurmo daraxtining tanasi yoqilg'i yoki yog'och sifatida ham ishlatish mumkin. Xurmo mevasining ichidagi urug'idan chorva mollarini boqish uchun ham foydalaniladi. Bu mamlakatlarning iqtisodiyoti, jamiyati va atrof-muhit uchun muhim xisoblanib kelmoqda. Arabiston xurmosi issiq va quruq iqlim sharoitida bo'lishi mumkin. Sho'r va ishqorli tuproqlarga chidamli. Arab xurmo daraxtlari changlantirishdan to' hosiligicha bo'lgan davrda yomg'ir va namlik juda past bo'lgan uzoq kuchli issiq yozni talab qiladi. Arab xurmolari o'rtacha harorati +12,7°C dan +27,5°C gacha o'sishi mumkin. +50°C gacha bardosh beradi va -5°C gacha past haroratda qisqa muddatli sovuqqa bardosh bera olishi mumkin. Arabiston Yarim Orol, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda ko'plab xurmo navlarini uchratishimiz mumkin. Ammo ularning aniq nomlari hozirgacha noma'lum. Arabcha nomlarining bir nechta turlari mavjud bo'lib arab tilidan tarjima qilinganda „nur sanosi“ degan ma'noni anglatuvchi, „deglet nour“ deb ataluvchi navi butun dunyoda juda mashhur. Bundan tashqari „bahri“, „halwey“, „hadvari“, „sagai“, „safawi“, „piarom“, „barhel“ navlari mavjud. Arab xurmosining uzoq umr ko'rish davri 50-40 yillarni tashkil etadi. Ammo bazilari 150 yilgacha hosil berishi mumkin. O'rtacha xurmo yiliga 40 kg meva beradi. Intensiv

parvarishlar bilan 100 kg dan ortiq hosil olish mumkin. Urg'ochi o'simliklar 4-6 yoshda xurmo mevasini hosil qila boshlaydi va 15-20 yil ichida to'liq hosil berishga o'tadi. Yosh mevalarda suv miqdori 75% dan 80% gacha

Arab xurmo mevasi



bo'lib pishishining boshida 40% dan 60% gacha kamayadi. Xurmoda soya harorati 18°C dan oshganda esa gullay boshlaydi va 25°C dan yuqori bo'lganda meva hosil qila boshlaydi. Xurmo tabiiy ravishda shamol orqali changlanadi. Ular urug'idan osongina o'stirilishi mumkin.

Xurmo urug'ini ekish jarayoni



Xurmo urug'ining unish jarayoni





Faqat 50% urg'ochi bo'ladi va shuning uchun meva beradi. Xurmo daraxtlarining balandligi 30 metrgacha yetadi. Ular yakka holda yoki bir ildiz tizimida o'sadi. Bir nechta poyali bo'lak hosil qiladi. O'sish jarayoni sekin kechadi. To'g'ri parvarish qilganda 100 dan oshadi. Barglari uzunligi 4-6 metr poyada tikanli, pinnatsimon 150 ga yaqin bargchalari bor. Barglarining uzunligi 30 sm va kengligi 2 sm. Bizga ma'lumki, arab xurmosi o'zining shifobaxshligi bilan boshqa mevalardan farq qiladi. Ushbu mahsulotni qadimdan otabobolarimiz sevib iste'mol qilishib kelishgan. Musulmon davlatlarida bu shifobaxsh mevani o'rni katta hisoblanadi. Arab xurmosining ajoyib sir-asrorlari bo'lib mineral va vitaminlarda boy hisoblanadi. Uning tarkibida mavjud bo'lgan inson organizmiga kerak bo'lgan 23 ta aminokislota boshqa mevalarda uchramaydi. Arab xurmosi Islom dinida muhim meva bo'lib Qur'oni Karimda 23 marta tilga olingan. Uning Alloh bilan mustahkam aloqasi, mazali mevaga ruhiy ahamiyat beradi. Qur'oni Karimda Alloh taolo xurmo daraxtlarini o'stirishga ishora qilib uning tafakkur qiluvchilar uchun muhimligini ta'kidlagan. „U bilan sizlar uchun ekinlarni, zaytunlari, xurmolarni, uzumlarni va har xil mevalarni yetishtirur“. Arab xurmosi Payg'ambarimiz tomonidan juda qadrlanadi. Musulmonlar uchun ramazon oyi bo'lgan ramazon oyida sevib iste'mol qilinadi. Payg'ambarimiz insonlarga xurmo yeyish ro'za tutishning yaxshi usuli ekanligini aytadi. Arab xurmosi inson salomatligi uchun juda foydali meva hisoblanadi. Quritilgan arab xurmosi tarkibida protein, uglevodlar, magniy, kalsiy, temir, kaliy moddolari mavjud. Arab xurmosini muntazam iste'mol qiladigan insonlar uchun oshqozon-ichak kasalliklaridan anemiya, diabetda, saraton kasalligining oldini olish uchun juda foydali. Bundan tashqari quritilgan xurmo tarkibidagi sulfitlar ba'zi insonlarda allergik reaksiyalarga olib kelishi mumkin. Ular beradigan vitamin va minerallarga nisbatan shakar miqdori yuqori. Tug'iriqdan so'ng, onada sutni ko'paytiradi, tishlarni karyesdan himoya qiladi. Insult xavfini 40% gacha kamaytiradi.

Xulosa. Arab xurmosini O'zbekiston sharoitida ekish va undan yuqori darajada hosil olish kutganimizdanda ancha uzoq vaqt talab qiladi. Xurmo daraxti unib chiqqanidan 4-6 yosh bo'lganida hosilga kirishni boshlaydi. 15-20 yil ichida to'liq hosil beradi. O'rtacha 40-50 yil umr ko'radi. Ammo ba'zilari uzoq muddat ya'ni 150 yilgacha hosil beradi. Arab xurmosi o'z nomi e'tirof etilganidek arab davlatlarida o'sadi. Ya'niki arab xurmosi



daraxti iqlimi ancha issiq bo'lgan mamlakatlarda o'stiriladi. Ushbu daraxtni vatanimizda ham o'stirishimiz mumkin. Iqlimimiz issiq bo'lgan viloyatlarda ya'ni Samarqand, Surxandaryo viloyatlaridagi oddiy tuproqlarda juda yaxshi o'sish jarayonini kuzatishimiz mumkin. Ammo tarkibida biogomus shu kabi meniral o'g'itlarda ekilsa yaxshi natijaga erisha olmaymiz. Arab xurmosini vatanimizda yetishtirish, yuqori darajada hosil olishga bo'lgan e'tibor yildan yilga o'sib bormoqda.

References:

1. Linda R., Berg Ph. D. "Introductory botany" Thomson Brooks 2008.
2. <https://www.wellcurve.in/blog/different-types-of-dates-fruit-varieties>
3. <https://www.webmd.com/diet/dried-dates-are-they-good-for-you>